

AVO

**“Fikr bildirganlik uchun sovg‘a” aksiyasini o’tkazish
qoidalari**

“Fikr bildirganlik uchun sovg'a” aksiysini o'tkazish qoidalari

1. Atamalar va tushunchalar

Aksiya – O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq Bank tomonidan o'tkaziladigan “Fikr bildirganlik uchun sovg'a” rag'batlantiruvchi aksiyasi.

Bank – “AVO bank” aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, ro'yxat raqami 16/1, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A-uy, telefon +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili info@avo.uz, Aksiya tashkilotchisi hisoblanadi.

Bosh shartnoma – “AVO bank” AJda jismoniy shaxslarga keng qamrovli bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnoma.

Bank mobil ilovasi – Bank va/yoki uning Hamkorlari va Foydalanuvchilari va/yoki Mijozi bilan hamroklikni amalga oshirish, shuningdek axborot almashish, Ariza/Buyurtma yo'llash (texnik imkoniyat mavjud bo'lsa) va Bank ixtiyoriga ko'ra alohida operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi mobil qurilma (smartfon, planshet va boshqalar) uchun ilova.

Mobil telefon raqami –jismoniy shaxs tomonidan Bank Mobil ilovasida Foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun taqdim etiladigan mobil telefon raqami.

Qoidalari – Aksiya o'tkazish tartibini belgilovchi ushbu hujjat.

Sovg'a – Ishtirokchi Qoidalarda belgilangan shartlarga amal qilganida unga topshiriladigan qimmatbaho sovg'a

Bank sayti – Bankning Internet tarmog'idagi www.av0.uz manzilida joylashtirilgan rasmiy veb-sayti

Aksiya ishtirokchisi – Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Qoidalarda bosh harf bilan ishlatalgan atamalar Bosh shartnomadagi kabi ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalari

- 2.1. Qoidalari Bankka yangi Foydalanuvchilar va/yoki Mijozlarni jalg qilishga, Bank mahsulotlari va Bank Mobil ilovasidan foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan Aksiyani o'tkazish tartibini belgilaydi.
- 2.2. Aksiyani o'tkazish muddati:
 - 2.2.1. Aksiya boshlanish sanasi va vaqt: 2024 yil __ sentabr, Toshkent vaqt bo'yicha soat 10:00;
 - 2.2.2. Aksiya tugashi sanasi va vaqt: 2024 yil 31 dekabr, Toshkent vaqt bo'yicha soat 22:00.
- 2.3. Aksiya o'tkazish hududi: O'zbekiston Respublikasi.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369 moddalariga muvofiq qoidalari ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish nazarda tutilmagan.

- 2.5. Foydalanuvchi va/yoki Mijozning quyidagi harakatlarni birlgilikda yoki alohida bajarishi ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilganligini bildiradi:
 - 2.5.1. Qoidalarning 3.1 bandida nazarda tutilgan talablarni bajarishga qaratilgan har qanday harakat;
 - 2.5.2. Bank Mobil ilovasida Bosh shartnomaga qo'shilish Ommaviy oferta shartlariga roziligi haqida chekboks qo'yish.
- 2.6. Bank uchinchi shaxs – Bank Hamkorini Aksiyani tashkillashtirish va o'tkazish uchun professional tashkilotchi sifatida shartnoma asosida jalb qilishga haqli.
- 2.7. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Foydalanuvchi va/yoki Bank Mijozi Bankka xabar bergen holda Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortishga haqli.
- 2.8. Qoidalar Bank Saytida joylashtiriladi.

3. Aksiyada ishtirok etish qoidalari

- 3.1. Bank Foydalanuvchilar va/yoki Mijozlari quyidagi shartlarni bir paytning o'zida bajarganida Aksiya ishtirokchisi bo'ladi:
 - 3.1.1. Quyidagi havolalar bo'yicha joylashgan ilovalar do'konlarida Bank Mobil ilovasi sahifasida Foydalanuvchi va/yoki Mijoz Bank Mobil ilovasi haqida fikr bildirgan:

Google Play	App Store
	
https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.avobank&hl=ru	https://apps.apple.com/ru/app/avo-%D0%BE%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D0%B9%D0%BD-%D0%B1%D0%B0%D0%BD%D0%BA/id6463799850

- 3.1.2. Bildirilgan fikrning uzinligi – 200 belgidan ko'p bo'limgan;

- 3.1.3. Bildirilgan fikr mazmunli va asosli;
- 3.1.4. Foydalanuvchi va/yoki Mijoz Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalaridan birida fikr bildirilganidan 1 ish kuni davomida bildirilgan fikrni Bank va/yoki Bank Hamkorining vakiliga ko'rsatdi.
- 3.2. Qoidalarning 3.1 bandi talabini bajargan Foydalanuvchi va/yoki Mijoz qoldirilgan fikrlarning miqdoridan qat'iy nazar 1 Sovg'a olishga haqli.
- 3.3. Sovg'a olgan Foydalanuvchi va/yoki Mijoz Qoidalarning 3.1 bandida nazarda tutilgan talablarni gayta bajargan taqdirda Sovg'a talab qilishga haqli emas.
- 3.4. Aksianing sovrinlar jamg'armasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- | Nº | Nomi | Miqdori, dona |
|----|------------------------|---------------|
| 1 | AVO brendli futbolkasi | 900 |
- 3.5. Aksiya Ishtirokchisiga topshiriladigan Sovg'aning turini Bank o'z xohishiga qarab Qoidalarning 3.4 bandidagi Sovg'alar ro'yxati ichidan belgilaydi.
- 3.6. Bank Qoidalarga o'zgartirish kiritish orqali Aksiya jamg'armasini yangi Sovg'alarga o'zgartirish va/yoki to'ldirishga haqli
- 3.7. Bank xodimlari, Bankka affillangan shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, Bankka aloqador shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas. Aksiyada ishtirok etayotgan shaxs tomonidan ushbu cheklovning o'ziga qo'llanilishi aniqlansa, bunday shaxs shu zaxoti Bankka bu haqida xabar berishi va/yoki Aksiyada keyingi ishtirokni to'xtatishi shart. Ushbu cheklovga qaramasdan shaxs holatni yashirishi va uning Aksiyada ishtiroki davom etishi Qoidalarning buzilishi hisoblanadi va ushbu shaxsni keyinchalik Aksiyada ishtirok etishdan diskvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Ushbu cheklovni buzgan Ishtirokchi avtomatik ravishda Aksiyada ishtirok etishdan chetlatiladi. Mazkur cheklov buzilganligi ma'lum bo'lgan taqdirda Bank Sovg'ani bunday shaxsga topshirishdan bosh tortishga haqli, agar Sovg'a amalda topshirilgan bo'lsa, Bank bunday shaxsdan Sovg'ani qaytarib berishni talab etishga haqli. Ushbu bandning maqsadlarida yaqin qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan shaxslar kiradi, ya'ni ota-onalar, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar va opa-singillar, turmush o'rtoqlar, farzandlar, shu jumladan asrab olingan farzandlar, bobolar, buvilar, neveralar, turmush o'rtog'ining ota-onalari, tug'ishgan va o'gay aka-ukalari va opa-singillari.
- 4. Sovg'alarni topshirish tartibi**

- 4.1. Sovg'alarni topshirish Qoidalarga 1-sonli Ilovada ko'rsatilgan manzillarda joylashgan Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalarida berish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 4.2. Sovg'a topshirilishida Aksiya Ishtirokchisi Bank vakili va/yoki Bank Hamkoriga quyidagilarni ko'rsatishi shart:
 - 4.2.1. shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asli);
 - 4.2.2. Bank Mobil ilovasiga bildirilgan fikr;
 - 4.2.3. Bank Mobil ilovasidagi hisob qaydnomasi.
- 4.3. Bank va/yoki Bank Hamkorining vakili Aksiya Ishtirokchisining mobil qurilmasini bildirilgan fikr bilan rasmga oladi.
- 4.4. Topshirish foto- va/yoki videotasvir yordamida qayd etilishi mumkin.
- 4.5. Aksiyada ishtirokni qabul qilish orqali G'olib quyidagilarga roziliginibildiradi (va Bank so'roviga ko'ra uning shaxsga doir ma'lumotlaridan shu zaxoti foydalanish va qayta ishslashga roziliginiyozma ravishda qo'shimcha taqdim etishga tayyor)
 - 4.5.1. Bank/Bank Hamkori va/yoki Bank/Bank Hamkori topshirig'iga asosan uchinchi shaxslarning foto va videotasvirlar olishi;
 - 4.5.2. Aksiya Ishtirokchisi bilan birgalikda yaratilgan foto va videoyozuvlardan (bunday foydalanganlik uchun Aksiya Ishtirokchisiga biron-bir haq to'lamasdan), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (televideeniye, Internet tarmog'i, bosma nashrlar va boshqalar) reklama maqsadlarida foydalanish, ko'rsatilgan foto va videoyozuvlardan foydalanish huquqini Aksiya Ishtirokchisi bilan birgalikda uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan.
- 4.6. Aksiya Ishtirokchisi Bank Aloqa markaziga rad etishini aytish va/yoki Bank elektron pochtasi manziliga info@avo.uz rad etish to'g'risidagi xabarni yo'llash orqali Sovg'ani olishdan bosh tortishga haqli. Rad etgan taqdirda Aksiya Ishtirokchisi Sovg'ani olish huquqini yo'qotadi va yana Sovg'ani talab etish huquqiga emas. Sovg'ani olishdan bosh tortganlik uchun pullik kompensatsiya to'lanmaydi.
- 4.7. Sovg'ani olish munosabati bilan yuzaga kelgan barcha davlat byudjetiga tegishli soliqlar va majburiy to'lovlari Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Bankdan ushlab qolinadi.
- 4.8. Sovg'a sifatida AVO bredi futbolkasini olish Ishtirokchi tomonidan AVO brendi futbolkasining o'Ichami, rangi, andozasi va boshqa xususiyatlarini tanlashni nazarda tutmaydi.

- 4.9. Aksiya Ishtirokchisi Sovg'ani almashtirishni va/yoki Sovg'aning pul qiymatini talab etish va/yoki Sovg'ani narxidagi farqni to'lash yoki qaytarish sharti bilan boshqa yuqori yoki past qiymatdagisiga almashtirishni talab etishga haqli emas.
- 4.10. Aksiya Ishtirokchisiga topshirilgan Sovg'alarning keyingi ishlatalishi bo'yicha, shuningdek har qanday sabablarga ko'ra Aksiya Ishtirokchisining Sovg'adan foydalana olmasligiga Bank javobgar emas. Sovg'alarning sifati uchun uning ishlab chiqaruvchisi javobgardir.

5. Cheklar

- 5.1. Bank Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli. Qoidalarga kiritilayotgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar haqida ma'lumot Bank Saytida joylashtiriladi. Aksiya Ishtirokchilari Qoidaning yangilanishini Bank Saytida tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 5.2. O'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirishi sanasigacha Foydalanuvchi va/yoki Mijoz Bank Mobil ilovasidan foydalanishda davom etsa, ushbu holat Foydalanuvchi va/yoki Mijoz kiritilayotgan o'zgarish va/yoki qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq roziliginibildiradi.
- 5.3. Agar Foydalanuvchi va/yoki Mijoz quyidagilarni amalga oshirgan taqdirda, Bank har qanday Foydalanuvchi va Mijozni Aksiya Ishtirokchilari qatoridan chetlatishga haqli:
 - 5.3.1. Bosh shartnoma, Qoidalar va/yoki Bankning boshqa hujjatlari shartlariga rioxat etmaslik, va/yoki
 - 5.3.2. Firibgarlik harakatlarini bajarish va/yoki
 - 5.3.3. Mijozga Aksiya doirasida taqdim etiladigan qaysidir imtiyozlarni suiste'mol qilish va/yoki
 - 5.3.4. Bankka chalg'ituvchi yoki no'to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish va/yoki
 - 5.3.5. Bankning ishbilarmonlik nufuziga putur yetqazadigan ma'lumotni tarqatish va/yoki
 - 5.3.6. boshqa Foydalanuvchi va/yoki Mijozlarni chalg'itish.
- 5.4. Quyidagi holatlarda Bank sababini tushuntirmasdan Aksiya Ishtirokchisiga Sovg'ani berishni rad etishi mumkin:
 - 5.4.1. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Qoidalarning 4.2 bandida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmaslik;
 - 5.4.2. Bank tomonidan Aksiya Ishtirokchisining Qoida shartlarini suiiste'mol qilish belgilaringning aniqlanishi va/yoki
 - 5.4.3. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Bosh shartnoma va/yoki Bankning boshqa hujjatlari shartlarining buzilishi va/yoki
 - 5.4.4. agar Bank Aksiya Ishtirokchisining harakatlari/harakatsizligini insofsiz va/yoki Aksiyada ishtirok etish shartlarini boshqa tarzda buzish deb hisoblasa va/yoki

5.5. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- 5.5.1. Aksiya Ishtirokchilarining aybiga ko'ra yoki Aksiya Ishtirokchisi va/yoki Bankning xohish-irodasiga bo'ysunmaydigan sabablarga ko'ra Sovg'ani olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/hujjatlarni olmaslik/ o'z vaqtida olmaslik;
 - 5.5.2. Qoidalarda nazarda tutilgan talablarning Aksiya Ishtirokchilari tomonidan bajarilmasligi (o'z vaqtida bajarilmasligi);
 - 5.5.3. Aksiya Ishtirokchilari tomonidan Sovg'a talab qilinmagan yoki undan voz kechilgan taqdirda olinmasligi;
 - 5.5.4. Uchinchi shaxslar aybi va/yoki yengib bo'lmas vaziyatlar sababli Aksiya Ishtirokchilariga Sovg'alarni topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishning imkonsizligi;
 - 5.5.5. Sovrin jamg'armasi tugaganligi sababli Aksiya ishtirokchilariga Sovg'alarni topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaslik.
- 5.6. Bank favqulodda vaziyatlar, shu jumladan, istisnosiz tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqinlari, har qanday turdag'i harbiy harakatlar, blokadalar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi jiddiy o'zgarishlar, shuningdek, Bankning xohish-irodasi va nazoratiga bog'liq bo'lman (yoki bog'liq bo'lgan) yengib bo'lmaydigan kuchning boshqa holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Aksiya ishtirokchilari va boshqa uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lmaydi.

6. Boshqa shartlar

- 6.1. Aksiya Ishtirokchisida Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq yuzaga keladigan zararlar, chiqimlar va har qanday xarajatlarni, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: Bank Aloqa markaziga qo'ng'iroq qilish, Bank Saytiga tashrif buyurish xarajatlari, Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalariga kelish uchun transport xarajatlarini Bank qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.
- 6.2. Aksiya o'yin, garov va (yoki) lotoreya hisoblanmaydi, xatar elementlarini o'z ichiga olmaydi, foyda yoki boshqa daromad olish maqsadini ko'zlamaydi va Qoidalarga asosan o'tkaziladi.
- 6.3. Qoidalardan kelib chiqadigan bahslar va nizolar Bosh shartnomaga shartlariga asosan hal etiladi. Sudga da'vo arizasi berishdan oldin Foydalanuvchi nizolarni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etishi – quyidagi usullardan biri orgali yozma e'tiroz yo'llashi lozim:
 - 6.3.1. Bank davlat ro'yxatidan o'tgan joyi bo'yicha Bank e'tirozni olganini tasdig'I bilan;
 - 6.3.2. info@avo.uz elektron pochtasi bo'yicha;
 - 6.3.3. Bankning texnik imkoniyati bo'lgan taqdirda Mobil ilovasida.
- 6.4. Da'vo muddati davomida Foydalanuvchi va/yoki Mijoz tomonidan da'vo taqdim etilishi mumkin. Bank ko'rsatilgan da'veoni ko'rib chiqadi va javobni Foydalanuvchiga Foydalanuvchi va/yoki Mijozdan da'vo olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalender kundan oshmagan

muddatda yuboradi. E'tiroz to'liq yoki qisman rad etilganda yoki ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlarda Bankdan javob olmagan taqdirda Foydalabuvchi va/yoki Mijoz sudga da'vo berishga haqli.

- 6.5. Qoidalardan kelib chiquvchi nizolar Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudida ko'rib chiqiladi. Nizo bo'yicha da'vogar Bank bo'lgan taqdirda, Bank o'z xohishiga ko'ra nizoni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudiga Toshkent shahridagi yakka tartibdagi hakamlik sudyasi tomonidan uning reglamentiga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rus tilida murojaat qilishga haqli.
- 6.6. Qoidalarga nazarda tutilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.
- 6.7. Aksiya Ishtirokchisi Qoidalarga bo'ysunishga majbur. Aksiya Ishtirokchisi shaxsan o'z nomidan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi, shartlarni, o'z harakatlarining oqibatlarini va Qoidalarda belgilangan tegishli qoidalarni aniq tushunadi.

“Fikr bildirganlik uchun futbolka” aksiyani o'tkazish Qoidalariga 1-sonli llova**Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuv shoxobchalari manzillari**

T/r	Hudud	Shahat/Tuman	Manzil	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalari nomi	Mo'ljal	Ish vaqtি, Du-Yak
1.	Andijon vioyati	Andijon	Mashrab ko'chasi, 62	Navruz Mall		10:00-22:00
2.	Andijon viloyati	Andijon	Cho'lpon shoh ko'chasi, 10	O'zbekim		10:00-22:00
3.	Andijon viloyati	Asaka	Asaka tumani, Birdamlik MFY, Jaloliddin Manguberdi ko'chasi, 48 uy	Globus savdo markazi		09:00-20:00
4.	Namangan viloyati	Namangan	Hamroh ko'chasi, 96-A	Grand Business	Oxunboboyev ko'chasi boshi, Muhammad Anvar ko'z klinikasi ro'parasida	09:00-20:00
5.	Namangan viloyati	Namangan	Iqbol MFY, B. Margiloniy ko'chasi, 11-B uy	Shodlik savdo markazi	Alisher Navoiy ko'chasi aylanmasi, Aloqa Bank ro'parasi	09:00-21:00
6.	Farg'ona viloyati	Marg'ilon	Burhonuddin Marg'inoniy ko'chasi, 111	Ansor Marg'ilon savdo markazi		09:00-21:00

7.	Farg'ona viloyati	Farg'ona	Marifat MFY, Mustaqillik shox ko'chasi, 50	Farg'ona markaziy univermagi		10:00-22:00
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus	Ernazar Alako'z shox ko'chasi, 162	Korzinka Nukus	Markaziy bozor	09:00-21:00
9.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus	Ernazar Alako'z shox ko'chasi, 60	Mega Nukus	Bes qala dorixonasi	09:00-22:00
10.	Xorazm viloyati	Urganch	Yangi Shovot Yo'li ko'chasi, 3	Darital	UrDU	09:00-21:00
11.	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo	Yangi Bozor ko'chasi, 4	Humo savdo markazi		10:00-20:00
12.	Toshkent	Mirzo-ulug'bek	Mirzo-ulug'bek tumani, T. Malik ko'chasi, 3a-sonli uy	Ekobozor	Chimgan va Atlas savdo markazi	10:00-22:00
13.	Toshkent	Yunusobod tumani	Yunusobod tumani, 19-kvartal, Yunusota ko'chasi, 119 uy	Atlas Yunusobod savdo markazi		10:00-22:00
14.	Toshkent	Mirzo-ulug'bek	Buyuk Ipak Yo'li MFY, Sayram ko'chasi, 1-a uy	Bo'z bozor		10:00-22:00
15.	Toshkent	Mirobod tumani	TKAD 17	Compass savdo markazi	Compass savdo markazi, Qo'yliq bozori	10:00-22:00
16.	Toshkent	Chilonzor tumani	Bunyodkor 52	Magnum Chilonzor		10:00-22:00

17.	Toshkent	Shayxontoxur tumani	Toshkent, Qoratosh ko'chasi, 5A	Samarkand Darvoza savdo markazi	Samarkand Darvoza savdo markazi, Qoratosh	10:00-22:00
18.	Toshkent	Shayxontoxur tumani	Labzak ko'chasi, 12/3	Anhor Park savdo markazi		10:00-22:00
19.	Toshkent	Sirg'ali tumani	Sirg'ali tumani, Tursunzoda ko'chasi, 14 uy	Golden Life savdo markazi	3 Metro stansiyasi	10:00-22:00
20.	Toshkent	Yakkasaroy tumani	Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 150	Vega Centre savdo ko'ngilochar markazi	Janubiy vokzal	10:00-22:00
21.	Buxoro viloyati	Buxoro	Islom Karimov ko'chasi, 8	Mediapark Buxoro	Mediapark, vokzal	09:00-21:00
22.	Buxoro viloyati	Buxoro	Navoi ko'chasi, 5 uy	Kitoblar Olami savdo markazi		09:00-21:00
23.	Buxoro viloyati	Buxoro	Buxoro viloyati, Buxoro sh., Ibn Sino ko'chasi, 402 uy	Minor savdo ko'ngilochar markazi		09:00-21:00
24.	Jizzax viloyati	Jizzax	Sharof Rashidov 97-98	Dream House	Asakabank	09:00-21:00
25.	Jizzax viloyati	Jizzax	Mustaqillik ko'chasi, 29 googledan koordinatlar 40.155603, 67.824532 https://maps.app.goo.gl/zWcmXdbmAZeTzY6c7	Orom bazor	Orom bazor	09:00-21:00

26.	Jizzax viloyati	Jizzax	Toshloy MFY, Sh. Rashidov ko'chasi, 15	Yuksalish savdo markazi	Yuksalish savdo markazi (Korzinka)	09:00-21:00
27.	Jizzax viloyati	Jizzax	Sayiljoyi mahallasi, Sh. Rashidov ko'chasi, 89 uy	MediaPark savdo markazi	MediaPark savdo markazi	09:00-21:00
28.	Navoiy viloyati	Navoiy	G'alaba ko'chasi, 149A	Yangi hayot savdo ko'ngilochar markazi		09:00-21:00
29.	Navoiy viloyati	Navoiy	Navoiy sh., Memor MFY, 17-kvartal, G'alaba ko'chasi, 457 uy	Techno Planet savdo markazi		09:00-19:00
30.	Samarqand viloyati	Samarqand	Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 131B	Atlas Samarqand	Korzinka	09:00-21:00
31.	Samarqand viloyati	Samarqand	Mir Said Baraka MFY, Mir Said Baraka ko'chasi, 2 uy	M_Baraka Samarqand savdo markazi	Viloyat shifoxonasi	09:00-21:00
32.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi	Islom Karimov ko'chasi, 17	Atlas Qarshi		10:00-21:00
33.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi	Alisher Navoiy shox ko'chasi, 27	Qarshi mall savdo markazi		10:00-22:00
34.	Surxandaryo viloyati	Termiz	Zaynab Sadriyeva ko'chasi, 5	Indenim Termiz		09:00-21:00